



## BUDJET TASHKILOTLARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRLAR HISOBINI YURITISH

**Hasanov Husinboy Xudayberganovich**

*O'zbekistonda Respublikasi bank moliya  
akademiyasi tinglevchisi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblar hisobini yuritishning asoslari tadqiq etilgan. Budjet tashkilotlarida xalqaro standartlari asosida tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaldagi holati va imkoniyatlari tahlil qilingan hamda ikkila standartning milliy va xalqaroda yuritish farqi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** budjet tashkiloti, tovar-moddiy zaxiralar, xalqaro standart, budjet hisobining standarti, IPSAS,

**Abstract:** This article examines the basics of keeping accounts related to inventory in budget organizations. The current situation and possibilities of accounting related to inventory in budget organizations based on international standards are analyzed. and the difference between the national and international implementation of the two standards is shown.

**Keywords:** budget organization, commodity reserves, international standard, budget accounting standard, IPSAS,

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены основы ведения учета запасов в бюджетных организациях, проанализировано современное состояние и возможности учета запасов в бюджетных организациях на основе международных стандартов, а также разница между национальным и международным внедрением двух стандартов. Показано.

**Ключевые слова:** бюджетная организация, товарные резервы, международный стандарт, стандарт бюджетного учета, IPSAS.

### KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda keng miqyosda har bir sohada o'zgarishlarni har birimiz ko'rishimiz mumkin, bular misolida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yaqol uchrata olamiz. Shu o'rinda, davlat budjet tashkilotlarini rivojlantirish, zamon talabiga mos ravishda ish yuritish hamda budjet tashkilotlarning aktivlarni samarali foydalanish va ularni to'g'ri tahlil qilish eng avvalo, xalqaro standartlari qo'llash orqali bunga erishishga olamiz.

Budjet tashkilotiga ta'rif berib o'tsak, davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan hamda davlat budgeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat



tashkilotlardir.Byudjet tashkilotlari o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun belgilangan normativlarga asosan ma'lum miqdorda tovar-moddiy zahiralariga ega bo'lishlari kerak va ular byudjet tashkilotlarining faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi. Byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, byudjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. "Albatta,davlat budget o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash,belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatisni ta'minlash zarur.Bu-hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat"-deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida.Shundan kelib chiqib, budget tashkilotlarining cheklangan mablag'laridan oqilona foydalanilishida tovar-moddiy zaxiralar hisobini to'g'ri tashki etilishi muhim hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ishlab chiqarish zahiralari - bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga shu davrning o'zida to'la o'tkazadigan zahiralarga aytildi. Ishlab chiqarish zahiralari, asosiy vositalardan farqli ravishda, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga shu davrning o'zida to'la o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining "Tovar-moddiy zahiralar" nomli 7-sonli standartiga asosan tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari, xizmat ko'rsatish va qurilish materiallari, harbiy quroq-aslahalar, asosiy vositalar uchun ehtiyoj qismlari, strategik zahiralar (masalan, energiya resurs zahiralari), muomalaga chiqarilmagan pul belgilari, sotish uchun mo'ljallangan pochta inventarlari va boshqalar kiradi( 7-sonli BHS,2019).

Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga asosan tovar-moddiy zahiralar:

- odatdagagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan;
- bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan;
- ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatilishida foydalanilishi ko'zlangan xomashyo va materiallar boshqa aktivlar(IP SAS 12, 2006yil).

Respublikamiz iqtisodchi olimlari va boshqa tadqiqotchilar tomonidan budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini va hisobotini yuritish doir ilmiy izlanishlar olib borgan.Budget sohasiga oid muammolar ayrim jihatlari va ularning yechimlari

M.Ostonaqulov,S.U.Mehmonov,D.Y.Ubaydullaev,A.Ibragimov,K.Ibragimov,B.Xasanov kabi mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.Yuqorda takidlab o'tilgan,iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida va qo'lyozmalarda budget tashkilotlarning buxgalteriya hisobi oid tovar-moddiy zaxiralaring tannarxi hisobi va hisobotining hisob standartlariga uyg'un jihatlari, hisobini olib borish, kirimi va



chiqimini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, tannarxini shakllantirish va inventarizatsiya masalalari o'rganilgan hamda hisobni tuzish va muvofiqlashtirishda quyidagicha tariflar va yondoshuvlar berib o'tilgan:

M.Xaydarov tomonidan o'z ilmiy izlanishlarida quydagi fikrlar bildirib o'tilgan: budget tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar harakatlarini to'g'ri aks ettirish, ularning kirimi va belgilangan me'yorlar asosida chiqimini to'g'ri tashkil etish bo'yicha taqiqot ishlarini amalga oshirgan (Xaydarov, 2015).

S.Tashnazarov tomanidan berilgan izohda esa tovar-moddiy zaxiralar tannarxini shakllantirish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari hamda buxgalteriya balansida zaxiralar tarkibini takomillashtirish bo'yicha takliflar ko'rsatib o'tilgan.

Ostonokulov A va Iskanov X. ilmiy ishida tovar-moddiy zaxiralarning saqlanishi, inventarizatsiyani tashkil etishning MDN mamlakatlari tajribasi tahlil qilingan (Ostonokulov, Iskanov 2018).

A.To'rayev va A.Norquchqorovlar tomonidan esa budget tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil qilishdagi mavjud muammolar va ularni budget hisobi standarti bo'yicha kutilayotgan yechimlar tadqiq qilingan (To'rayev, Norquchqorov, 2019).

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat sektorida buxglateriya hisobini yuritishda tovar-moddiy zaxiralar baholash muhim hisoblanadi. Tovar moddiy zaxiralar 2 xil qiymat asosida baholanadi. Ular quyida ko'rsatib o'tilgan:

a) tannarxi;

b) **realizatsiya qilishning sof qiymati** -odatiy faoliyat jarayonida kutilayotgan sotish qiymatidan ishlab chiqarish yakuni bo'yicha hamda sotish, almashtirish yoki berish bilan bog'liq xarajatlarni chegirgan holda aniqlanadigan qiymat.

Tovar-moddiy zaxiralar quyidagilar natijasida tashkilot balansiga kirim qilinadi:

- yetkzaib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo'yicha xarid qilish;
- beg'araz kelib tushush (hadya shartnomasi bo'yicha);
- ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarning aniqlanishi;
- tashkilotning o'zida tayyorlanishi;
- uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazilishi;
- uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazilishi;

Malumki, Tovar moddiy zaxiralar tashkilotning buxgalteriya balansiga tannarx bo'yicha kiritiladi, u sotib olish qiymati (yetkazib berish xarajatlari) va ularni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu o'rinda tannarxga kiritiladigan xarajatlar quyidagicha hisoblanadi:



- yetkazib berish xarajatlari;
- bojxona bojlari va yig'implari;
- tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalar(agar ular qoplanmagan bo'lsa);
- vositachilik haqi;
- tovar moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlar;
  - tovar moddiy zaxiralarni tayyorlash xarajatlari(ishlab chiqarishdagi ish haqi,asosiy vositalarning eskirish xarajati va materiallar);
  - tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bevosa bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Va aksincha sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar,o'z navbatida bular:akkreditiv ochish xarajatlari,pul o'tkazmalari uchun bank komissiyasi,tovar moddiy zaxiralarni xorijiy valutasiga xarid qilish jarayonida valutani konvertatsiyalash va boshqa bank xarajatlari,shartnomalarni tayyorlash,ro'yxatdan o'tkazish va aktivlarni xarid qilish bilan bevosa bog'liq bo'lmanган boshqa xarajatlar tovar-moddiy zaxiralarning tannarxiga kiritilmaydi,ammo ular hisobot davrida haqiqiy xarajatlar sifatida aks ettiriladi.

Xorijiy valutasida sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarlarning tannarxi sotib olish va qo'shimcha xarajatlarni qo'shgan holda xorijiy valutasidagi summani bojxona yuk deklaratsiyasi yoki ishlar,xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish sanasidagi Markaziy bank kursi bo'yicha qayta hisoblash yo'li bilan so'mda olib boriladi.

**Analitik va sintetik hisobni tashkil etish.**Budget tashkilotiga kirimga olinayotgan tovar moddiy zaxiralar bo'yicha alohida qaytnomalar ochilib barcha amalga oshirilgan xarajatlar boshlang'ich hujjatlarda asosan rasmiylashtiriladi.

TMZ kirimi bo'yicha "O'zgidromet" misolida ko'rib o'tamiz.Silica gel oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha "O'zgidromet" tashkilotiga olindi.Shartnomaga bo'yicha narxi jami 1 239 920 so'm (yuk xatiga asosan),yetkazib berish 40 000 so'm.(bajarilgan ishlar topshirish,qabul qilish dalolatnomasiga asosan).Jami xarajat summasi 1 279 920 so'mni tashkil etadi.Demak,tashkilot balansiga sotib olingan silicagel 1 239 920 so'm emas,balki 1 279 920 so'm qilib haqiqiy tannarxida kirimga olinadi.Qaydnomaga asosan kirim qilingan tovar-moddiy zaxiralar M-44 shakldagi material zaxiralar bo'yicha aylanma qaydnomaga summasi keltiriladi.

### Tovar moddiy zaxiralar kirimi bo'yicha

Silica gel miqdori 80 ta quti.

Sana 11.10.2023



Nº	Ko'rsatkich nomi	Qiymati(so'mda)	Asos bo'lgan hujjat
1	Shartnoma narxi	1 239 920	yuk xati
2	yetkazib berish xarajati	40 000	bajarilgan ishlarni topshirish qabul qilish dalolatnomasi
	jami	1 279 920	

1-jadval

Budjet tashkilotlarda tovar-moddiy zaxiralar oldi-shartnomasi asosida sotib qilishda ularning kirimi buxgalteriya o'tkazmalarida quyidagicha rasmiylashtiriladi.

2-jadval

	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	
1	Sotib olingan tovar-moddiy zaxiralar qiymati (sotib olish narxi, yetkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar)	091	15,16,17 schyotlamining tegishli subschyotlari	Yuk xati, bajarilgan ishlami topshirish, qabul qilish dalolatnomalari va boshqalar
2	Sotib olingan tovar - moddiy zaxira haqiqiy qiymati bo'yicha kirim qilinishi.	06 schyotning tegishli subschyotlari	091	Qaydnama,buxgalteriya ma'lumotnomasi va boshqalar

Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zahiralarni hisobdan chiqarish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ma'lumki tovar-moddiy zaxiralar tashkilotning balansidan:

- sotish;
- beg'araz berish;
- saqlash muddati tugagach yaroqsizligi sababli, jismonan va ma'nан eskirganligi natijasida tugatish (yo'q qilish);
- kamomad, yo'qotish yoki shikastlanish (sinish, bo'linish) aniqlanishi;
- boshqa operatsiyalar va hodisalar natijasida hisobdan chiqariladi.

Tovar-moddiy zaxiralami hisobdan chiqarilishi buxgalteriya o'tkazmalarida quyidagicha aks ettiriladi: Sarflanishi, saqlash muddati tugagach yaroqsizligi sababli, jismonan va ma'nан eskirganligi natijasida tugatish (yo'q qilish)



### 3-jadval

Sarflanishi, yaroqsiz holatga kelishi sababli tovar moddiy zaxiralami hisobdan chiqarish	231,241,251, 261 yoki 271 subschyotlaming tegishlisi	05, 06 schyotning tegishli subschyotlari	Yuk xati (talabnoma), hisobdan chiqarish dalolatnomalar va boshqalar
---	---	---	---

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tashkilot faoliyati davomida tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish, saqlash, ishlatish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etuvchi shaxslarning o'zaro javobgarligini va ularning birlamchi hujjatlarini ta'minlash tovar-moddiy zaxiralardan byudjet qoidalari va smeta intizomiga muvofiq foydalanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning ishtiroki tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya qilish jarayonida o'zaro aloqadorlik moddiy javobgar shaxslarning mas'uliyatini yanada oshiradi. Budget tashkilotlarida tovar-moddiy boyliklardan muntazam foydalanishni ta'minlash va ularning hisobot davri yakuni bo'yicha qoldig'i limitlari tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan ehtiyojni muntazam aniqlash, ularning qoldiqlarini aniqlash, xarajatlar moddalari bo'yicha smetalarning bajarilishini nazorat qilish imkonini beradi.

Ko'pgina hollarda inventarizatsiya natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning bajarilishi to'liq bajarilmaydi va natijada moddiy javobgar shaxslarni topshirish yoki ishdan bo'shatish, tovar-moddiy boyliklarni talon-taroj qilish. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, kerak tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha inventar dalolatnomalarini to'liq bajarilishi uchun javobgarlikni kuchaytirish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" 2013 yil 26 dekabrdagi O'RQ-360-son
- 2) O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2016 yil 13 aprel. O'RQ-404-son.
- 3) O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (7-sonli BHS) "Tovar-moddiy zahiralar" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 14 yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3120
- 4) "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnama" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2169-son



5)Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: –“O'zbekiston” NMIU, 2017

6)International public sektor accounting standards (IPSAS) -12, Inventories. New York, December – 2006

7)S.U.Mehmonov,D.Y.Ubaydullayev “Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” - Toshkent: «Sano-standart» nashriyoti 2013.-456 bet .

8)Mehmonov S.U. “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish” i.f.d. diss. avtoref. 76 b. – T., 2018

9)Tashnazarov S. Tovar-moddiy zahiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017 yi

10)Ostonokulov A., Ramazonov A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo‘nalishlari “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. - 2021. - №2. 1-8-betlar <https://interfinance.uz>

17. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.

18. Sattorovich, A. U. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(20), 232-234.

19. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (12 (79)), 10-13.

20. Abdusalomov, U. S. (2023). DEFENDING THE MOTHERLAND IS THE OBLIGATION OF EVERY CHILD. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(1), 6-9.

21. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 6, 24-26.

22. Sattorovich, A. U. (2023). HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(12), 96-100.

23. Sattorovich, A. U. B. (2022). «HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI». Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 90-97.



24. Абдусаломов, У. С. (2023). ЗАЩИЩАТЬ РОДИНУ-ОБЯЗАННОСТЬ КАЖДОГО РЕБЕНКА. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 5(5), 13-17.

**INTERNET SAYTLARI:**

11) [www.lex.uz](http://www.lex.uz) O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi